ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-12

O‘QUVCHILARDA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSUYATLARI.

Turayev Doniyor Amirovich.
Tabiiy va aniq fanlar fakulteti,Texnologiya va geografiya kafedrasi o’qituvchisi.
Texnologik ta’lim yo’nalishi talabasi ***Musurmonova Maxfirat Said qizi***

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga oid mulohazlar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье технологические компетенции студентов представлены комментарии об особенностях формирования.

Abstract. In this article, students' technological competencies comments on the specific features of the formation are presented.

Kalit so‘z: kasb, kompetensiya, tehnologiya, talabalar, axborot, mutahassis, ishlab chiqarish, tadqiqot, muhandislik, kompyuter grafikasi

Ключевое слово: компетентность, технологии, студенты, информация, специалист, производство, исследования, инженерия, компьютерная графика

Key words: competence, technology, students, information, specialist, production, research, engineering, computer graphics

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat muayyan o‘quv fanlari bo‘yicha bilimlarni yuksak darajada o‘zlashtirishni, balki amaliy va ijtimoiy faoliyatda faol ishtiroketishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Globallashuv sharoitida maktab o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, texnologiya fani mazmunini takomillashtirish muammosi o‘quvchilarni texnologik faoliyatga tayyorlash, amaliy faoliyatning turli sohalarida ularda shaxsiy mehnat tajribasi va faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi bilan uzviy bog‘liq.

Maktab o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishninghozirgi holatini o‘rganish natijalari shundan dalolat beradiki, texnologikta’lim va o‘quv jarayonini moddiy ishlab chiqarish ehtiyojiga yo‘naltirishustuvor ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ta’lim muhitida maktab o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishtizimini rivojlantirish ularni amaliyotga yo‘naltirib o‘qitishning yagona tizimini shakllantirishni, shuningdek, faoliyatning turli sohalarida moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, ta’kitlash joizki, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar kontekstida ayni muammo nazariy va amaliy jihatdan hali o‘z yechimini to‘la topgani yo‘q, chunkita’lim tizimining turg‘unligi (stagnatsiyasi) sharoitda o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish masalasiga yetarlicha e’tibor berilmadi. Holbuki, yangi kiritilgan texnologiya fani maktabda integrallashtiruvchi, tizim hosil qiluvchi pozitsiyani egallash imkoniga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida umumiy o‘rta ta’limni isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ekanligi qayd etib o‘tilgan. Texnologiya fani ushbu yo‘nalishda muhimo‘rin tutadi. Ishlab chiqilgan me’yoriy-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-12

huquqiy hujjatlarga muvofiq, maktabda texnologiya fanini o‘qitish maqsadi o‘quvchilarningtexnik-texnologik va operatsionbilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, texnologik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu masalalar ilmiy-texnika talablariga muvofiq ravishda texnologiya fani asoslarini o‘rganishda, o‘quvchilarning salomatligi holati, yoshi va individual xususiyalarini hisobga olgan holdaularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishda, sinfdan tashqari ishlarda texnologik ta’lim va mehnat tarbiyasining uzviy birligi asosida hal etiladi,

Innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish muammosi hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy, psixofiziologik va psixologik-pedagogik yondashuvlar birligi asosida joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Pedagog olimlarning fikricha innovatsiya (yangilik) – bu faoliyatning

turli sohalariga yangiliklarni tatbiq etish jarayoni. Hozirgi zamon ta’lim tizimida pedagogik jarayonlar ikki turdan tashkil topgan: innovatsion va an’anaviy pedagogik jarayonlar.

Ta’limdagi innovatsiya – bu maqsadga yo‘naltirilgan yangilik bo‘lib, uning maqsadi ta’limda barqaror va ancha samarali natijaga erishishdir.

Innovatsion yondashuv ta’lim mazmunini ishlab chiqarish jarayonidagi yangi texnika va texnologiya elementlari bilan boyitish, ta’lim jarayoniga innovatsion ta’lim va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan amalda foydalanishni bildiradi.

Pedagogik innovatsiya – bu nazariy jihatdan asoslangan, maqsadga va amaliyotga yo‘naltirilgan mazmun, metod, shakl va vositalar majmuasi. U makrodaraja, mezodaraja va mikrodarajalarda amalga oshiriladi. Makrodarajadagi innovatsiya butun ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga daxldor va bu uning paradigmalari o‘zgarishlariga olib keladi, mezodarajadagi innovatsiya ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarga yo‘naltiriladi, mikrodarajadagi innovatsiyada o‘quv fani, yoki fanlar bloki (masalan, texnologiya o‘quv fanining yangi mazmunini ishlab chiqish; yoki ta’lim jarayonini tuzilmalashtirishning yangi usullarini, yangi texnologiyalarni, o‘qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqishga) e’tibor qaratiladi.

Bizning pedagogik tadqiqotimiz kontekstida mikrodarajadagi innovatsiyalar o‘rganildi va takomillashtirildi.

Innovatsion yondoshuv asosida tashkil etiladigan texnologik ta’limning birinchi yo‘nalishi bu – amaliy faoliyatning turli shakllarida nazariy bilimlarni qo‘llash asosida ilmiy texnologik dunyoqarashni shakllantirish.Ikkinchi yo‘nalishi – amaliy mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan texnologik ta’lim, uchinchi yo‘nalishi – o‘quvchilarni doimiy ravishda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish. Bunda o‘quvchilarning o‘quv-bilish, mehnat va ijtimoiy faolligining birligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Texnologik ta’limning to‘rtinchi yetakchi yo‘nalishida mehnat va umumtexnologik tayyorgarlikning umumiy asosi hisoblanmish bilim, mehnat faoliyati ko‘nikma va malakalarning uzviy birligini ta’minlash nazarda tutiladi.

Tadqiqot doirasida o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni deganda quyidagilarni nazarda tutildi:pedagogik tizimning barcha komponentlari (maqsadlar, vazifalar, mazmunlar, shakllar, metodlar, mezonlar, ko‘rsatkichlar, yo‘nalishlar va belgilangan natijaga erishning shart-sharoitlari)ning o‘zaro bog‘liqligi; texnologik ta’limning umumiy va maxsus komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi; o‘quvchilarni o‘quv amaliy faoliyatning turli sohalari va bo‘limlariga turli mehnat predmetlari orqali jalb etish; o‘quvchilarning ehtiyoj va qobiliyatlariga ko‘ra o‘quv faoliyatini turli darajalarda tashkil etish; umumiy ta’limning butun

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-12

tizimi asosini tashkil etuvchi fundamental bilimlar asosida o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish; barcha ta’lim sohalarining ajralmas tashkil etuvchisi va umumiy ta’limning tizim hosil qiluvchi elementi sifatida o‘quvchilarning texnologik kompetensiyalarinianiqlash; mehnatning ijtimoiy bo‘limlari tuzilishi amaliy faoliyatning barcha turlari va shakllariga o‘quvchilarni jalb etish; o‘quv vositalari, sinfdan tashqari o‘quv faoliyati, qo‘shimcha (to‘garaklar) va mustaqil ta’limning o‘zaro bog‘liqligi; texnologik ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning o‘zaro bog‘liqligi va uzluksizligi; o‘quvchilarning ko‘p bosqichli, ko‘p darajali, ijodiy texnologik kompetensiyalarini pedagogik ta’minlash.

Innovatsion yondashuv asosida 5-7-sinf o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etish natijasida texnologik ta’lim samaradorligini oshirishning qator imkoniyatlari aniqlashtirildi. Bu esa o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning tashkiliy-pedagogik modelini, texnologik ta’limning metod va shakllarini ishlab chiqishda g‘oyaviy asos bo‘ldi.

O‘qitish mazmuniga quyilgan quyidagi talablar aniqlandi: ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettirish zarurligi (ilg‘or texnologik jarayonlar, axbrot-kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat mahsulotlarining yangi turlarini o‘zlashtirish); yangi texnologik jarayonlar va yangi texnikalarni o‘rganishdagi izchillik, materiallarni an’anviy qayta ishlash usullarini zamonaviylari bilan qiyoslash, umumiylik va alohidalikni aniqlash, qiyoslash, tahlil qilish; umumiy o‘rta ta’lim predmetlari va texnologik ta’lim mazmunining o‘zaro bog‘liqligi; zamonaviy ishlab chiqarishda qayta ishlashning texnologik usullarining qo‘llanilishi; o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish imkoniyati.

Maktab o‘qituvchilari, rahbarlari bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari, texnologiyafani o‘qituvchilarini o‘qitish tajribasi shundan dalolat beradiki, texnologik ta’limni amalga oshirish borasida ularning nazariy va uslubiy tayyorlanganligi yetarli darajada emas ekan. Tajriba-eksperimental ishning borishida texnologiya, fizika, matematika, kimyo, biologiya, informatika o‘qituvchilariga anketa savollariga javob berish taklif qilindi.

Olingan javoblar tahlilidan quyidagilar ma’lum bo‘ldi: so‘rovnomada 47% o‘qituvchi qatnashgan bo‘lib, ularning 31% “texnologik ta’lim” va “mehnat ta’limi” tushunchalarini bir-biriga o‘xshatadi; ishtirokchilarning 30% “texnologik tayyorgarlik” tushunchasi mazmunini aniq tasavvur qila olmaydi; faqat so‘rovnomada ishtirok etgano‘qituvchilarning 30% darsning barcha turlarida texnologik tayyorgarlikning didaktik vazifalarini hal etish mumkinligini ta’kidlaydi; 33% o‘qituvchi o‘quvchilarning texnologik tayyorgarligi masalalarni yechish darslarida, laboratoriya ishlarida yanada samarali bo‘ladi, deb hisoblaydi; o‘qituvchilarning 22% yangi materialni tushuntirish jarayonida texnologik materiallarni kiritish yanada samarali ekanligini qayd etadi; faqatgina 35% o‘qituvchi fanlararo aloqadorlikni maktab o‘quvchilari texnologik tayyorgarligining zaruriy sharti sifatida e’tirof etadi, shuningdek, ularni amalga oshirishning ba’zi usul va yo‘llarini ham tavsiya etadi.

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘quvchilarning faol bilish faoliyatini tashkil qilish, ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni tuzish, ishbilarmonlik o‘yinlarini va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish, texnologik yo‘nalishdagi ekskursiyalarni tashkil qilish maqsadida turli xil darslarda texnologik tayyorgarlik bo‘yicha didaktik vazifalarni to‘liqhal eta olmaslik holatlarini

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-12

ham ta'kidlab o'tadilar.1.2-jadvalda o'qituvchilarning o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarning shakllanishini mustaqil baholash haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi"gi (2019 yil 29 oktabr) Qonuni // https://lex.uz/doc/4571490.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017 yil 7 fevral) Фармони // https://lex.uz/pages/getpages.aspx?list_id=3107036# 3109146

3. Nishonova S. "Komil inson tarbiyasi", Toshkent, "Istiqlol", 2003 y. 2. O'. Tolipov va boshqalar "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". T., "Fan", 2005 y.

4. Vyazankova V.V. Axborot va ta'lim muhit shartlarida tayyorlanishning texnik yo'nalishlari bo'yicha bakalavranlarning grafik kompetensiyasini shakllantirish // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2021 yil - 2-son; URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=30663 (kirish 09.12.2022).

5. Turayev Khumoyiddin Abdugafforovich, Sattarov Shavkat Yuldashevich, Tashkuziyev Bakhriddin Muhiddinovich, Turayev Doniyor Amirovich - Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric Reflection Techniques- Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric Reflection Techniques. 13791-13800. 2019/12/31.

6. Choriev, R., & Kucharov, S. (2023). METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC TEXTBOOKS IN THE FIELD OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B1), 371-373.

7. Choriev, R., & Kucharov, S. (2023). OPPORTUNITIES OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE TRAINING OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS. Science and innovation, 2(B4), 152-155.

8. Гадаймуратов Ш. М. (2022). БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. TALQIN VA TADQIQOTLAR, 5.

9. Дусяров Х. Ч. Квалификационные требования специалистов к содержанию высшего образования //Педагогическое образование и наука. – 2019. – №. 5. – С. 7-8.

10. Тураев Дониёр Амирович ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ Modern Scientific Research International scientific journal (ISSN: 1817-0315) Journal 2023 Volume 1 Issue 3

11. Turayev Doniyor Amirovich BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA MODELI Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 19-20-may 2023-yil